**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**
**OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

| | |
|---|---|
| "TASDIQLAYMAN" | "KELISHILDI" |
| SH.SHaripov. | Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi |
| 2018 yil "25" 08 | 2018 yil "25" 08 |
| | Ro'yhatga olindi: BD -5111800-2.01 |
| | 2018 - yil "18" 08 |

**UMUMIY PSIXOLOGIYA**

FAN DASTURI

| | |
|---|---|
| Bilim sohasi: | 100000 – Gumanitar |
| Ta'lim sohasi: | 110000 – Pedagogika |
| Ta'lim yo'nalishi: | 5111800 – Maktabgacha ta'lim |

**TOSHKENT – 2018**

Fan dasturi Oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi yo‘nalishlari bo‘yicha O‘quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengashning 2018-yil “18” 08 dagi 4 -sonli bayonnomasi bilan ma’qullangan.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2018-yil “25” 08 dagi 744-sonli buyrug‘i bilan ma’qullangan fan dasturlarini tayanch oliy ta’lim muassasasi tomonidan tasdiqlashga rozilik berilgan.

Fan dasturi Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetida ishlab chiqildi.

**Tuzuvchi:**

N.I.Xalilova – TDPU “Psixologiya” kafedrasi dotsenti, psixologiya fanlari nomzodi

G.K.Alimova – TDPU “Psixologiya” kafedrasi dotsent в/b

**Taqrizchilar:**

I.N.Aslonov- Alisher Navoiy nomidagi O’zbek tili va adabiyoti universiteti, Pedagogika va psixologiya kafedrasi, psixologiya fanlari nomzodi

M.Saidova- A.Avloniy nomidagi Xalq ta’limi tizimi rahbari va mutaxassis xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti katta o’qituvchisi

Fan dasturi Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti o‘quv-uslubiy Kengashida tavsiya qilingan (2018-yil 28 06 dagi 11 - sonli bayonnoma).

## I. O‘quv fanining dolzarbligi oily kasbiy ta‘limdagi o‘rni

Inson psixologiyasini bilish shaxs ta’lim-tarbiyasi hamda kamolga yetishini samarali yo‘lga qo‘yilishiga olib keladi. Ayniqsa, bo‘lajak mutaxassislarni inson bilan bog‘liq faoliyatlarini nazarda tutadigan bo‘lsak ham nazariy va amaliy bilimlarni egallashni taqazo etadi. Ta’kidlash joizki, o‘quv fani talabaga shaxs omili bilan bog‘liq fundamental bilimlarni egallashni taqazo qiladi. Shuning bilan birga kasbiy faoliyati uchun zarur bo‘ladigan nazariy bilimlarni shakllantirishni nazarda tutadi.

“Umumiy psixologiya” fani doirasida bo‘lajak mutaxassis fan doirasidagi nazariy bilimlarni egallash bilan birga shaxs amaliyotiga doir qarashlarni tahlil qilish imkoniga ega bo‘ladi.

## II. O‘quv fanining maqsadi va vazifasi

Fanni o‘qitishdan maqsad - talabalarni amaliyotchi psixologning kasbiy faoliyati va uning talablari, psixologik tarixi va uning shakllanish jarayoni, psixologiya fanining dolzarb masalalari, individ, shaxs, individuallik va shaxs psixik taraqqiyotining muammolari bilan tanishtirish, kasbiy faoliyatga doir masalalarini ongli ravishda tadqiq etish, psixologiyaga doir masalalarning yechimini topishda psixologiyaning imkoniyatlari mohiyatini tushuntirish va ularni qo‘llay olishga o‘rgatishdir.

Fanning vazifasi –talabalarda psixologning kasbiy faoliyati, psixologiya tarixi, psixologiyaning mohiyati, psixika va ong tushunchalari, psixik jarayonlar, holatlar, xususiyatlar haqidagi bilimlar bilan qurollantirishdan iborat.

“Umumiy psixologiya” o‘quv fanini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr:

– psixologiyaning tabiiy va ijtimoiy fan sifatida talqin qilinishi; psixologiyaning sohalari; psixologiya va falsafaning o’zaro aloqasi; psixologiya va ilmiy-texnik taraqqiyot; pedagog faoliyatida psixologiyaning etakchi ahamiyatga ega ekanligi; ijtimoiy va oila psixologiyasi fanining predmeti va vazifalari; ijtimoiy va oila psixologiyasining metodlari; bolalarning guruhdagi shaxslararo munosabatlari haqida; bolalar jamoasi va guruhlarning shaxs ijtimoiylashuviga ta`siri; shaxsning guruhda rivojlanishi; nikoh-oila munosabatlarining yuzaga kelishi va rivojlanish tarixi; oilada bola tarbiyasi *bilimga;*

– psixika tirik mavjudotning ob`ektiv borliqni aks ettirish shakli ekanligi; psixika va ong munosabati; ulug` mutafakkirlarning psixologik qarashlari; psixologiyaning o’rganish metodlari; faoliyat va motivlar, faoliyatning asosiy turlari; refleksiya nazariyasi; odam psixikasining paydo bo’lishi; odam psixikasining ontogenez taraqqiyoti; yuksak psixik funktsiyalarning tarkib topishi; motivatsiya sohalari; irodaviy harakatlar va uni boshqarish; individ, shaxs, individuallik; shaxs faoliyati; sezgi va idrokning fiziologik asoslari; xotira nazariyasi; xayol va uning turlari; tafakkur va hissiy bilish; temperament nazariyasi, tiplari; xarakter va uning boshqa psixologik hodisalar bilan bog`liqligi; qobiliyatning sifat va miqdor xarakteristikasini asosiy metodlarning qisqacha

tavsifi; ijtimoiy va oila psixologiyasi fanining predmeti va vazifalari, ijtimoiy oila psixologiyasining metodlari, ijtimoiy va oila psixologiyasi faninig rivojlanish tarixi, makro va mikro guruhlarda bola shaxsining shakllanishini psixologik mexanizmlari; bolalar jamoasining rivojlanish dinamikasi; bolalar jamoasidagi guruh ichidagi o'zaro munosabatlarning psixologik xususiyatlari; ota-ona va bola munosabatlarining psixodiagnostikasining nazariy asoslarini *ko'nikma;*

- shaxs (o'quvchi)ning psixologik xususiyatlarini o'rganuvchi metod va texnologiyalar; o'quv jarayonini boshqarish; eksperimentlar o'tkazish; shaxs (o'quvchi) psixikasining o'ziga xos xususiyatlarini kuzatish; o'quv jarayonida turli anketa va boshqa usullarni qo'llay olish; oilada psixologik ma`rifiy ishlarni tashkil etish, "Sotsiometriya" metodikasi bilan tanshishi, uni o'tkazish, tahlil qilish va tahlil natijlari asosida xuloslar chiazish, muloqot jarayonida guruh a`zolarining bir-birlariga o'zaro ta`sirini aniqlash, bu jarayonda verbal, noverbal, paralingvistik ta`sirlarni qo'llash, shaxslararo ziddiyatlarni aniqlash va ularni bartaraf etish uslublari, shaxs va jamiyat munosabati, oilaviy munosabatlarni psixodiagnostika qilish bo'yicha amaliy *malakasiga ega bo'lishi kerak.*

**1-Modul. Umumiy psixologiyaga kirish**

**1-Mavzu:Umumiy psixologiya fanining predmeti, vazifalari, metodlari**

Shaxsni o'rganishning metodologik asoslari. Inson va insoniyat haqidagi fan. Psixologiya fanining predmeti, maqsad va vazifalari. Psixologiya fanining tamoyillari. Psixologiyaning asosiy metodlari.

**2-Mavzu:Psixologiya zamonaviy fanlar tizimida**

Ruh va ong haqidagi antik davr va o'rta asrlardagi qarashlari. Introspektsiya metodi va o'zini o'zi kuzatish muammosi. Bixeviorizm xulq-atvor haqidagi fan. Psixikaning rivojlanish tarixi. Psixologiyaning boshqa fanlar bilan aloqasi. Psixologiyaning sohalari.

**3-Mavzu:Psixika va uning evolyutsiyasi**

Psixika haqida tushuncha. Hayvon psixikasining rivojlanishi. Ong va uning taraqqiyoti. Ong haqida tushuncha, inson psixikasini rivojlanishining tarixiy-madaniy kontseptsiyasi. Inson psixikasining rivojlanishi. Inson psixikasining fiziologik asosi. Ongsizlik muammosi.

**4-Mavzu:Faoliyat**

Faoliyatning psixologik tavsifi. Faoliyatning psixologik nazariyalari. Faoliyatning operatsional-texnik jihatlari. Harakatlar fiziologiyasi va faollik fiziologiyasi.

**5-Mavzu:Shaxs**

Shaxs haqida tushuncha. Shaxs borasida biogenetik va sotsiogenetik nazariya. Shaxs shakllanishi va rivojlanishi. Shaxs nazariyalari.

**2-Modul. Kognitiv psixologiya**

**6-Mavzu:Diqqat**

Diqqatning haqida tushuncha. Diqqat turlari. Diqqat xususiyatlari. Diqqatning rivojlanishi.

**7-Mavzu:Sezgi**

Sezgi haqida tushuncha. Sezgi turlari. Sezgining xususiyatlari va tavsifi. Sensor adaptatsiya va sezgilarning o'zaro ta`siri. Sezgining rivojlanishi.

**8-Mavzu:Idrok**

Idrokning umumiy tavsifnomasi. Idrokning nerv-fiziologik asosi. Idrok xususiyatlari va turlari. Idrokning individual farqlari va uning rivojlanishi. Idrokda predmet va fon. Fazoni, vaqtni, harakatni idrok qilish.

**9-Mavzu:Xotira**

Xotira haqida tushucha va tavsifi. Xotira turlari. Xotira jarayonlari va mexanizmlari. Xotiradagi individual farqlar va rivojlanishi.

**10-Mavzu:Xayol**

Xayol haqida tushuncha va uning inson psixik faoliyatidagi roli. Xayol turlari. Xayoliy obrazlarni qayta ishlash mexanizmlari. Xayolning individual farqlar va rivojlanishi. Xayol va ijod.

**11-Mavzu:Tafakkur**

Tafakkur tabiat va uning turlari. Tafakkur shakllari. Tafakkurni o'rganishga nazariy va empirik yondashuv. Aqliy operatsiyalarning asosiy turlari. Murakkab mantiqiy masalalarni echish va ijodiy tafakkur. Tafakkurning rivojlanishi.

**12-Mavzu:Nutq**

Nutq haqida tushuncha. Nutqning fiziologik asoslari. Nutqni o'rganishga nazariy yondashuv. Nutqning turlari. Nutqning rivojlanishi.

**3-Modul. Hissiy irodaviy soha psixologiyasi**

**13-Mavzu:Iroda**

Irodaviy harakatlar haqida tushuncha. Iroda borasidagi psixologik nazariyalar. Irodaviy harakatlarning fiziologik motivatsion asoslari. Irodaviy harakat tuzilishi va rivojlanishi.

**14-Mavzu:Hissiyot**

Hissiyotning umumiy tavsif va uning turlari. Hissiyotning fiziologik asosi va psixologik nazariyalari. Hissiyotning rivojlanishi va inson hayotidagi o'rni.

**15-Mavzu:Shaxs yo'nalganligi va faoliyat motivi.**

Shaxs yo'nalganligi va faoliyat motivi haqida tushuncha. Motivatsiya haqidagi nazariyalar. Motivatsion soha rivojlanishining asosiy qonuniyatlari.

**4-Modul. Individual farqlar psixologiyasi**

**16-Mavzu:Qobiliyat**

Qobiliyat haqida tushuncha. Qobiliyat rivojlanishi va individual farqlar. Inson qobiliyatining biologik asoslari. Qobiliyatning rivojlanishi.

**17-Mavzu:Temperament**

Temperament haqida tushuncha. Temperament haqidagi ta`limotlarning qisqacha mazmuni. Temperamentga psixologik tavsif va inson faoliyati.

**18-Mavzu:Xarakter**

Xarakter haqida tushuncha. Xarakterni o'rganishga nazariy va empirik yondashuv. Xarakterning shakllanishi.

**5-Modul. Pedagogik psixologiyasi**

**19-Mavzu:Pedagogik psixologiya fanining predmeti, maqsad va vazifalari**

Pedagogik psixologiya fanining predmeti, vazifasi va tuzilishi. Pedagogik psixologiyaning tamoyil va metodlari. Pedagogik psixologiyani rivojlanishini tarixiy jihatlari.

**20-mavzu. Ta`lim ijtimoiy madaniy fenomen**

Jamiyatning daslabki rivojlanishi bosqichlarida bola shaxsiga munosabat xususiyatlari, ta`lim jarayonini tuzish uchun asos sifatida inson haqidagi falsafiy-psixologik tasavvurlar, pedagogik jarayon kontseptsiyalari va uning psixologik asoslari, hozirgi zamon ta`limi: kognitiv-orinetirovkadan shaxsiy orientirovkali ta`lim paradigmalari.

**21-mavzu. Ta`lim psixologiyasi**

O'quv faoliyati, o'quv motivlari, rivojlanuvchi ta`limning psixologik asoslari, dars jarayonida o'quvchilarni boshqarish texnikasi va usullari, kompyuterlashtirilgan ta`limning psixologik jihatlari.

**22-mavzu. Tarbiya psixologiyasi**

Tarbiyaviy texnologiyalarning psixologik aspektlari, turli yosh bosqichlarida tarbiya xususiyatlari, shaxs shakllanishiga oilaning ta`siri, shaxs tarbiyasida madaniyat.

**23-mavzu. O'qituvchi psixologiyasi**

Pedagog faoliyatida psixologiyaning o'rni, pedagogik muloqot, pedagogik o'zaro harakatlar psixologiyasi, pedagogik qobiliyatlar, pedagogik faoliyatning individual uslubi, pedagog bilan psixolog faoliyatining modeli, pedagogik jamoa psixologiyasi.

**IV. Seminar va amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar.**

Seminar mashg'ulotlarida talabarlarda ijtimoiy psixologiyaga doir bilim, ko'nikma va malakalar hosil qilinadi.

1. Umumiy psixologiya fanining predmeti, maqsad, vazifalari, tamoyillari va tadqiqot metodlari
2. Psixika va uning evolyusiyasi
3. Psixologiyada ong va ongsizlik muammosi
4. Faoliyat
5. Shaxs
6. Diqqat
7. Sezgi
8. Idrok
9. Xotira
10. Xayol. Tasavvur
11. Tafakkur
12. Nutq
13. Hissiyot
14. Iroda
15. Motiv va motivatsiya
16. Temperament
17. Xarakter
18. Qobiliyat
19. Pedagogik psixologiya fanining predmeti
20. Psixik taraqqiyot va ta'lim
21. Ta'lim ijtimoiy madaniy fenomen
22. Ta'lim psixologiyasi
23. Tarbiya psixologiyasi
24. O'qituvchi psixologiyasi
25. O'qituvchining pedagogik mahorati va psixologik madaniyati

**V.Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar**

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

Talaba mustaqil ta'limni tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- darslik va o'quv qo'llanmalar boyiha fan boblari va mavzularini o'rganish;
- tarqatma materiallar bo'yieha ma'ruzalar qismini o'zlashtirish;
- maxsus adabiyotlar bo'yiha fan bo'limlari yoki mavzulari ustida ishlash; masofaviy ta'lim.

Talabaga mustaqil ta'limning mavzulari beriladi, bu mavzular bo'yiha egallanishi kerak bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar, muddati va topshirish shakli aytiladi. Ko'rsatilgan muddatda nazariy material konspekti, referati ko'riladi, test yoki savol-javob o'tkaziladi.

Tavsiya etiladigan mustaqil ta'limning mavzulari.

1. Miya va psixika
2. Psixologiyaning fan sifatida shakllanishi
3. Psixikaning filogenetik taraqqiyoti
4. Inson ongining rivojlanishi
5. Psixologiyaning fanlar tizimida tutgan o'rni
6. Hozirgi zamon psixologiyasining tuzilishi
7. Hozirgi zamon psixologiyasining ilmiy tadqiqot metodlari
8. Faoliyatning asosiy turlari

9. O‘yin faoliyatining inson hayotidagi o‘rni
10. Jahon psixologiyasida shaxs nazariyalari
11. Shasning psixologik tuzilish modellari
12. E.Eriksonning shaxs nazariyasi
13. Diqqat borasidagi psixologik nazariyalar
14. Diqqat turlari
15. Diqqat xususiyatlari
16. Diqqatning buzilishi
17. Sezgilarning umumiy qonuniyatlari
18. Sezgi borasidagi nazariyalar
19. Idrok
20. Idrokda appretsepsiya
21. Idrokda ob’ekt va fon
22. Xotira haqida tushuncha
23. Xotira turlari
24. Tafakkur borasidagi psixologik nazariyalar
25. Xayolning asosiy xususiyatlari
26. Iroda borasidagi nazariyalar
27. O‘zbekiston psixologlari tadqiqoltlarida motiv va motivatsiya muammosi
28. Temperamentning fiziologik asoslari
29. Harakterning fiziologik asoslari
30. Qobiliyatlar borasidagi psixologik nazariyalar
31. Talantning paydo bo‘lishi va rivojlanishi
32. Harakter tipologiyasi
33. Illyuziya va gollyusinatsiya
34. Pedagogik psixologiyaning fanlar tizimida tutgan o‘rni
35. Pedagogik faoliyatda shaxslararo munosabatlarning o‘ziga xos jihatlari
36. Ta’limning shaxs psixikasiga ta’siri
37. Psixik taraqqiyot nazariyalari
38. Pedagogik qobiliyatlar
39. O‘qituvchi professiogrammasi
40. O‘quv faoliyatini boshqarish
41. Pedgogik baho psixologiyasi
42. Ta’limda individual yondashuv muammosi
43. Sharq allomalari asarlarida tarbiya masalasining yoritilishi
44. Tarbiya jarayonining ijtimoiy psixologik mohiyati
45. Tarbiya metodlari va vositalarining psixologik mazmuni
46. O‘qituvchining axloq ideal sifatida namoyon bo‘lishi
47. Pedagog shaxsi va unga qo‘yiladigan talablar
48. Pedagogik muloqot
49. Pedagogning individual faoliyat uslubi
50. Pedagogning o‘z-o‘zini boshqarish muammosi
51. Pedagogik jarayonda ijtimoiy persepsiya
52. Tarbiyachining axloq ideal sifatida namoyon bo‘lishi
53. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolaning shaxsini shakllanishida tarbiyachining o‘rni

## VI.Asosiy va qo’shimha o’quv adabiyotlar hamda axborot manbaalari

### Asosiy adabiyotlar.

1.G‘oziyev E. Ontogenez psixologiyasi.Toshkent, Noshir., T 2010.

2.Do‘stmuhammedova Sh.A., Z.T.Nishonova, S.X.Jalilova, Sh.T.Karimova, Sh.T.Alimbayeva “Yosh davrlari va pedagogik psixologiya” Toshkent Fan va texnologiyalar Markazining bosmaxonasi. 2013.

3.Davletshin M.G. va boshqalar «Yosh davrlari va pedagogik psixologiya» T. TDPU, 2004 yil.

4.Shtern A.S. «Vvedenie v psixologii» M.: Akademiya Spb 2002.

5.David G. Myers “Psychology”. NY, 2010. WORTH PUBLISHERS.

6.Abramova.G.S. «Vozrastnaya psixologiya»: Uchebnoe posobie dlya studentov vuzov.-M., “Izd-vo” 2001.- 621s.

7.Krisko V.G. «Psixologiya i pedagogika» M.: Xarvest – AST 2000.

8.Zimnyaya.I.A «Pedagogicheskaya psixologiya»: Uchebnik dlya vuzov. – M., “Izd-vo” 2002.-384s.

9.Rean A.A., Bordovskaya.N, Rozum.S «Psixologiya i pedagogika» SPb.: Piter 2007.

10. Ye.E.Sapogova Psixologiya razvitiya cheloveka Aspekt Press 2005 g

### Qo‘shimcha adabiyotlar

11.Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy taxlil qatыiy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatini kundalik qoidasi bo‘lishi kerak O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar maxkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag‘ishlangan majlisidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi //Xalq so‘zi gazetasi 2017 yil 16 yanvar №11.

12.Mirziyov Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. “O‘zbekiston” 2016.

13.Mirziyov Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob halqimiz bilan birga qo‘ramiz. “O‘zbekiston” 2017

14.O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoev 2017—2021 yillarda O‘zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakat strategiyasi. 7 yanvar 2017 yil.

15.Psychology as the Behaviorist Views it John B. Watson (1913) First published in Psychological Review, 20, 158-177.

16.Michael W. Eysenck, Mark T. Keane Cognitive psychology. Psychology press USA, 2005 130 bet.

17.J.A. Groegerd, Memory and Remembering (1997).

18.Martinskovoy T.D. “Detskaya prakticheskaya psixologiya” Pod.red.-M., “Izd-vo” 2000.-255s.

19.Peters V.A, “Pedagogicheskaya psixologiya (v voprosax i otvetax)” M. “Izd-vo” 2000.

20.Xrestomatiya., “Psixologiya zrelosti” M. Samara. Gumanitarniy nauk, 2003.

**Izoh**: Qo'shimcha adabiyotlar boshqa ilmiy kutubxonalarda mavjud.

**Internet saytlari**

21.www. tdpu. uz
22.www. pedagog. uz
23.www. ziyonet. uz
24.www. edu. uz

**Izoh:** qo'shimcha adabiyotlar boshqa axborot-resurs markazlarida mavjud.